



Xalq so'zi

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 6-mart, № 48 (8671)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



BARCHA ISLOHOTLARIMIZ AHOLI FAROVONLIGI VA SOG'LOM AVLOD KAMOLOTIGA QARATILGAN

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-mart kuni Toshkent shahrida sport ta'limi, savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi yangi zamonaviy obyektlar, ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi.



Davlatimiz rahbari dastlab Toshkent shahrida barpo etilgan Bahodir Jalolov ixtisoslashtirilgan boks sport maktabini borib ko'rdi.

Olimpiada va Osiyo o'yinlari g'olibi, ikki karra jahon va uch karra Osiyo chempioni Bahodir Jalolov O'zbekiston sportining bayroqdori hisoblanadi. U keyingi yillarda professional boksda ham muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqda.

Yurtimizda bunday chempionlar faoliyatini targ'ib qilish, ularning namunasida yosh sportchilarni tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 14-martdagi qaroriga muvofiq, shunday yana bir maskan — Boks bo'yicha Bahodir Jalolov sport mahorati maktabi tashkil etildi.

Bu yerda xalqaro darajadagi bokschilarni tayyorlash, buning uchun yuqori malakali murabbiy va mutaxassislarni jalb etish, o'quv-mashg'ulotlarni xalqaro standartlar darajasida tashkil qilish hamda ilg'or

tajribalar asosida uning sifatini oshirib borish yo'lga qo'yilmoqda.

To'rt qavatli zamonaviy binoda buning uchun barcha sharoit yaratilgan. Birinchi qavatda asosiy sport zali, suzish havzasi, tibbiyot xonasi va oshxona bor. Ikkinchi qavatda psixologiya, xorijiy tillar, nazariy mashg'ulotlar, informatika va o'qituvchilar xonalari, shuningdek, 45 o'rinli mehmonxona joylashgan. Uchinchi va to'rtinchi qavatlarda 235 o'rinli yotoqxona, ma'naviyat xonasi tashkil etilgan. Shuningdek, bino yerto'lasida avtoturargoh qurilgan.

Boks maktabi 175 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, 5 — 11-sinflarga har yili 25 nafardan o'quvchi saralab olinadi. Ilk iqtidorlar 2022-yilgi o'quv yilida qabul qilingan va bugungi kunda 50 nafar o'quvchi saboq olmoqda. Ular butun mamlakatimizdan kelgan talabgorlar orasidan saralab olingan.

Bahodir Jalolov maktabi o'quvchilari 2023-yilda xalqaro va

respublika musobaqalarida 26 ta oltin, 18 ta kumush, 15 ta bronza medalni qo'lga kiritgan. Bu yil ham qator turnirlarda ishtirok etish rejalashtirilgan.

Maktab butun mamlakatimiz yosh bokschilari uchun o'quv-mashg'ulot bazasi bo'ladi. Yosh istiqbolli bokschilarni tanlash va tarbiyalash bo'yicha boshqa sport maktablari va markazlari bilan hamkorlik qilib boradi.

Shu bois maktabda yosh sportchilar, soha mutasaddilari bilan muloqot bo'ldi. Muloqotga videoaloqa orqali hududlar ham ulandi.

— Biz bu yilni Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili, deb e'lon qildik. Har doim ham bu masalaga alohida e'tibor qaratib, yoshlarga kerakli sharoitlarni yaratapmiz. Ularning salohiyati, intilishi kuchli. Boks bo'yicha dunyoda yetakchilar qatoridamiz. Bu salohiyatni, iqtidorli yoshlarimizni rivojlantirish maqsadida shu maktabni tashkil

etdik. Endi Bahodir Jalolov maktabi o'z yo'nalishida xuddi Prezident maktabidek namunaviy tizim bo'ladi. Boks metodologiyasi, diyetologiyasi, tibbiyoti, psixologiyasi hududlardagi sport maktablarida ham rivojlantiriladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Viloyat hokimlariga sport federatsiyalari bilan hamkorlikni yaxshilash, hududlarda ularning ishiga ko'maklashish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Yoshlar o'rtasida sportni yanada ommalashtirish, xususan, ularni boksqa jalb etish, buning uchun maktab va to'garaklarda sharoitlarni kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Sport gimnastikasi bo'yicha uch karra jahon chempioni, jahon kubogi sohibi Oksana Chusovitina — mamlakatimiz faxri. U sakkizta Olimpiadada qatnashgan yagona gimnastikachi sifatida Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan.

Yurtimizda shunday sportchining

bo'lishi bolalar uchun namuna, dalda. Prezidentimizning 2022-yil 14-martdagi Oksana Chusovitina ixtisoslashtirilgan gimnastika sport maktabini tashkil etish to'g'risidagi qarori sportsevar yoshlarga katta sharoit yaratdi.

Davlatimiz rahbari ushbu sport maktabiga tashrif buyurib, bu yerdagi sharoitlarni va mashg'ulotlarni ko'zdan kechirdi.

Muassasa milliy terma jamoalar uchun xalqaro darajadagi sportchilarni tayyorlash, yuqori malakali murabbiy va mutaxassislarni jalb etib, o'quv-mashg'ulot jarayonini xalqaro standartlar darajasida tashkil qilish, murabbiylar va gimnastikachilar mahoratini yuqoriligi oshirib borishga yo'naltirilgan. Buning uchun uch qavatli zamonaviy binoda barcha sharoit yaratilgan.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

Senat qo'mitasida

MAHKUMLARNING HUQUQ VA ERKINLIK LARI KAFOLATLARI KUCHAYTIRILMOQDA

Oliy Majlis Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining navbatdagi majlisida muhim qonunlar ko'rib chiqildi. Unda senatorlar, mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari raislari, Yoshlar parlamenti va qo'mita huzuridagi ekspertlar guruhi a'zolari, qonun tashabbuskorlari, mutasaddi vazirlik va idoralar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Dastlab "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-jirroiya kodeksiga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, konstitutsiyaviy islohotlar natijasida turli yo'nalishlarda bo'lgani kabi mahkumlarning huquq va erkinliklari, ularning sha'ni hamda qadr-qimmatini hurmat qilinishini ta'minlash borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur qonun bilan Jinoyat-jirroiya kodeksiga yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq

mahkumlarning o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'lishiga, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishiga, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ga, Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsman)ga hamda inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etish borasidagi huquqlari mustahkamlanayotir. Shuningdek, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir qilganligi uchun ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlarning saylovlarda hamda referendumda qatnashish imkoniyatlarini beruvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

USTUVOR MAQSADLARDA INSON QADRINI ULUG'LASH MUJASSAM

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasining 2023-yilda bajarilishi yuzasidan Hukumat hisoboti atroflicha muhokama qilindi. Shu bilan birga, inson huquq va manfaatlarini ta'minlash, xususiyl mulk daxlsizligi ishonchli himoya qilinishini kafolatlash, g'iyohvandlikka qarshi kurashishga oid bir qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Davlat dasturi ijrosi — muhokamada

"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" davlat dasturi hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasining 2023-yilda bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi hisoboti muhokama markazida bo'ldi.



Aks sado

OLAM NURGA TO'LSIN SEN BILAN, NAVRO'ZI!

Prezidentimizning "2024-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori bahoriy kayfiyatimizni, qalbimizda, ruhimizda kechayotgan yangilanish va yasharish shukuhini yanada to'liqlantirib yubordi. Zero, ushbu hujjatga muvofiq, bu yilgi bayram mamlakatimizda "Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z!" degan bosh g'oya asosida umumxalq

sayillari shaklida ko'tarinki ruh va yuqori darajada keng nishonlanadi.

O'lkamizda Navro'z ifori kezmogda. Iliq nasim chor-atrofini tutib ketgan. Boboquyosh zaminga o'z nurlarini cheksiz saxovat ila sochmogda. Yurtimizning dala-dashtlari va kengliklarida bahor elchisi — boychechaklar unib chiqdi, maysalar barq urdi, daraxtlar kurtak yoydi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

8-MART — XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI MUNOSABATI BILAN MUKOFOTLASH TO'G'RISIDA

Mamlakatimizda mo'tabar ayol zotiga ulkan ehtirom ko'rsatish, davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rnini oshirish, shuningdek, o'zining samarali mehnati, boy tajribasi bilan yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida faol qatnashib, Yangi O'zbekistonni barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo'lida tashabbus va ibrat ko'rsatib kelayotgan, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashga katta hissa qo'shayotgan xotin-qizlarni munosib taqdirlash maqsadida quyidagilar mukofotlansin:

"Mehnat shuhrati" ordeni bilan

Annaklicheva Gulistan Axmedovna — "Qoraqalpog'iston adabiyoti" gazetasi bosh muharriri, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Bag'ishova Bilimxon Alimbekovna — Chortoq tumanidagi "Soz-soy" mahalla fuqarolar yig'ini xotin-qizlar faoli, Namangan viloyati

Jo'raqulova Rano Muhamedjanovna — Samarqand viloyati musiqali drama teatrlarining drama artisti

Raximova Guluro — Xorazm viloyati musiqali drama teatrlarining yetakchi sahna ustasi

Raximova Rayxon Abdurasulovna — Surxondaryo viloyati hokimligi huzuridagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o'quv kursi direktori

Egamberdiyeva Turgunoy Axamadjonovna — Farg'ona davlat universitetining O'zbekiston tarixi kafedrasini professori, Farg'ona viloyati

"Do'stlik" ordeni bilan

Aymuratova Liza Ayturmatovna — "Quo'anish jarma" irrigatsiya tizimi boshqarmasi muhandis-gidrotexnigi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Aslonova Emma Sergeevna — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Budget va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi a'zosi

Axmedova Maxsuma To'xtamurodovna — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi

Baxramova Rizvon Xororovna — Buxoro viloyati bosh imom-xatibining xotin-qizlar masalalari bo'yicha yordamchisi, bosh otinoyisi

Voxidova Matlubaxon Manonovna — So'x tumanidagi "Mulki Bovohid" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Farg'ona viloyati

Djakeeva Zamira Derbisovna — Tomdi tumani sanitariya-epidemiologik o'soyish talik va jamoat salomatligi bo'limi boshlig'i, Navoiy viloyati

Djuraliyeva Azamat Turayevna — Termiz tumanidagi "Temur bobo" fermer xo'jaligi agronomi, Surxondaryo viloyati

Do'ilboyeva Barchinoy Abdurasulovna — Baxmal tumanidagi "Barlos" folklor jamoasi badiiy rahbari, Jizzax viloyati

Yesimxanova Regina Aleksandrovna — "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining Toshkent yuk vagon deposi vagon yig'uv sexi kran mashinisti

Zyangurova Ruzaliya Shafkatovna — Sirdaryo viloyati ixtisoslashtirilgan sport maktabining yengil atletika bo'yicha murabbiysi

Iskandarova Roza Raxmanovna — O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining xoreografiya pedagogikasi kafedrasini dotsenti

Kayumova Malikaxon Abduraximovna — Pop tumanidagi "Papfen" mas'uliyati cheklangan jamiyati operatori, Namangan viloyati

Muradova Gulzira Sariyevna — Mirishkor tumanidagi "Yangi Mirishkor agropilla" mas'uliyati cheklangan jamiyati pillachisi, Qashqadaryo viloyati

Sergeeva Yuliya Vladimirovna — O'rta Chirchiq tumanidagi "Kim Pen Xva chorva" fermer xo'jaligi boshlig'i, Toshkent viloyati

Xamroyeva Gulnoza Mamatmuratovna — Pastdarg'om tumanidagi 8-oilaviy bolalar uyi rahbari, Samarqand viloyati

Xodjayeva Sayyora Ataxanovna — Demokratiya va inson huquqlari instituti direktori

Sheroval Saodat Otajonovna — Shovot tumanidagi "Shovot qal'a bioservis" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Xorazm viloyati

Ergaziyeva Mayramxon Satvoldiyevna — "Hunarmand" uyushmasining Andijon viloyati boshqarmasi a'zosi, do'ppido'z

Yagafarova Nailiya Munirovna — "12-trest" aksiyadorlik jamiyatining arxitektori va dizaynerlar bo'limi yetakchi arxitektori, Toshkent shahri

(Davomi 2-betda).



Gulnora ABDURAHMONOVA,
Davlat iqtisodiyot universiteti prorektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Qaljan AYIMBETOVA,
Qo'ng'iro't tumanidagi
52-umumta'lim maktabi direktori,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
xalq ta'limi a'lochisi.

USTUVOR MAQSADLARDA INSON QADRINI ULUG'LASH MUJASSAM



1 Majlisda ta'kidlanganidek, o'tgan davrda belgilangan ustuvor yo'nalish va maqsadlar doirasida amalga oshirilgan ishlar inson qadriini ulug'lash, xalqimizga munosib turmush sharoitini yaratish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratildi. Hukumat tomonidan davlat dasturi o'z vaqtida, to'liq va sifati bajarilishini kafolatlash maqsadida tegishli chora-tadbirlar ko'rilgan. Natijada 2023-yilda yalpi ichki mahsulotning o'sishi o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 6,0 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, dasturda belgilangan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ishlab chiqilishida Hukumat va parlament o'rtasida yaqin hamkorlikda faoliyat olib borildi.

Hisobot davrida har bir insonga o'z salohiyatini ro'yogga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish yo'nalishida ham qator ishlar amalga oshirildi. Ya'ni maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish yo'nalishida 3 — 7 yoshli 2,1 mln. nafar bola sifati maktabgacha ta'lim bilan qamrab olindi. Yangi maktablarni qurish va mavjudlarni rekonstruksiya qilish hamda ularda zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 563 ta maktabda qurilish ishlari yakunlangan, 46 ta sport zali binolari qurilgan. Shuningdek, respublika bo'yicha quvvati 116 ming o'ringa mo'ljallangan 4 402 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi tashkil etilgan.

Ta'lim uchun qulay muhit yaratish maqsadida qo'shimcha 119 mingtadan ortiq o'quvchi o'rinlari yaratilgan. Shu bilan birga, fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunariga o'qitish, ularning kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish maqsadida 2023-yilning iyul — dekabr oylari davomida tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari tomonidan hokim yordamchilari bilan birgalikda 87 132 nafar ishsiz shaxs kasb-hunar, tadbirkorlik va xorijiy tillarga o'qitilgan.

Aholi bandligini ta'minlash, yoshlar va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb qilish yo'nalishida ko'lamli ishlar amalga oshirilgani majlisda alohida qayd etildi. Jumladan, "ayollar haftasi"ga kiritilgan 1 mln. 779 nafar ehtiyojmand xotin-qizning 993 ming 368 nafariga yordam ko'rsatilgan. Shu bilan birga, "yoshlar haftasi"ga jami 435 ming 316 yosh kiritilib, ularning 388 ming 70 nafariga shartnoma to'lovi, mehnat qurollari uchun mablag', muddatli harbiy xizmat badali, haydovchilik kurslari, kasb-hunariga o'qish va davolanish kabi yo'nalishlardagi xarajatlar uchun 444 mlrd. so'm qoplab berilgan.

Bundan tashqari, respublika bo'yicha og'ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan,

turarjoyga muhtoj jami 4 ming 138 nafar xotin-qiz uy-joy bilan ta'minlanib, 3 ming 488 nafar ehtiyojmand xotin-qiz maxsus jarrohlik amaliyotidan o'tkazilgan.

Hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish maqsadida xizmatlari sohasini rivojlantirish uchun 15 171 ta savdo servis obyekti tashkil etilib, 96 115 ta ish o'ri yaratilgan. Aholi maskanlarida keng polosali mobil internet bilan qamrab olish darajasi 99 foizga yetkazilgan.

Hisobotda keltirilishicha, "Yashil energiya" texnologiyalarini keng joriy qilish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'molini kamaytirish maqsadida 177 ta nasos hamda 237 ta elektr dvigateli yangisiga almashtirilgan. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirish hamda "Yashil makon" umummilliy loyihasini kengaytirish yo'nalishida respublika bo'ylab jami 219,1 mln. tup, shundan bahor mavsumida 127,7 mln. tup, kuz mavsumida 91,4 mln. tup manzarali va mevali daraxt, buta ko'chatlari ekilgan.

Deputatlar davlat dasturi ijrosini ta'minlashda ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalariga ustuvorlik berilganini e'tirof etib, aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, daromadlarni oshirish, fan va uzluksiz ta'limni rivojlantirish, xotin-qizlar, yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, har bir insonga o'z salohiyatini ro'yogga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish, odamlarning turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlar amalga oshirilganini ta'kidladilar.

Mazkur hisobot yuzasidan siyosiy partiyalarning quyi palatadagi fraksiyalari o'z nuqtayi nazarini bildirdi.

Muhokama va savol-javoblardan so'ng deputatlar Vazirlar Mahkamasining hisobotini ma'qullab, Hukumat faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar aks etgan tegishli qarorni qabul qildi.

Yarashuv institutini qo'llash doirasi kengayadi

Majlisda "Huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda atroficha ko'rib chiqildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yarashuv instituti samarali qo'llanib kelinayotgani jamiyatimizda insonparvarlik tamoyilini kuchaytirishga, taraffarining manfaatlariga va kelgusida jinoyatchilikning oldini olishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan yarashuv institutiga kiruvchi ma'muriy

huquqbuzarliklar doirasini kengaytirish belgilanyapti. Ya'ni Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda moddalar sonini 12 tadan 15 tagacha ko'paytirish orqali yarashuv to'g'risidagi institutni qo'llash doirasini kengaytirish taklif etilmoqda. Bu, o'z navbatida, odamlar, ayniqsa, qarindoshlar, yaqinlar va taniishlar o'rtasida kelishtiriladigan tartibning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga sog'liqlning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish bilan bog'liq jinoyi qilmishni dekriminallashtirish qilib, uni ma'muriy huquqbuzarlik toifasiga o'tkazish, shuningdek, ushbu huquqiy normani yangi kvalifikatsiya belgilari bilan to'ldirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Xususiy mulk himoyasi

Deputatlar "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini ikkinchi o'qishda muddama-modda ko'rib chiqdilar.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda xususiy mulk va unga bo'lgan huquqlar daxlsizligining ishonchli himoya qilinishini ta'minlash hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklashga doir tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum qilingan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'ri qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi qat'iy belgilab qo'yildi.

Xususiy mulk va unga bo'lgan huquqlar daxlsizligini himoya qilishga qaratilgan mazkur islohotlar O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqqlashtirishni taqozo etmoqda.

Qonun loyihasi bilan Uy-joy kodeksi va "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilyapti.

Jumladan, Uy-joy kodeksining 11-moddasida turarjoylarning tashqi ko'rinishini o'zgartirish, ularni qayta qurish yoki buzish shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi belgilanmoqda. Amalda turarjoylarning

ko'rinishini o'zgartirish, ularni qayta qurish yoki buzishga mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli ruxsatnomasi bo'lgan taqdirda yo'l qo'yilar edi.

Shuningdek, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum qilingan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'ri qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishini ta'minlash belgilab qo'yilmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning so'zsiz amalga oshirilishiga, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymatini hamda u ko'rgan zararlarning o'ri qonun belgilangan tartibda qoplash orqali xususiy mulkning himoya qilinishini va mulkdorlar huquqlari kafolatlarini ta'minlash imkonini beradi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Giyohvandlik vositalarini internet orqali sotganlarga javobgarlik kuchaytirilmoqda

Majlisda ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat — giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar, shuningdek, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning qonunga xilof ravishda muomalasiga qarshi kurashishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar, shuningdek, kuchli ta'sir qiluvchi moddalar qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga qarshi kurashish bo'yicha tizimli choralar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, giyohvandlik vositalarini Internet jahon axborot tarmog'ini orqali amalga oshirish, bunday vositalarni tarqatish va reklama qilishning yangi usullaridan foydalanish keskin o'rtayotir. Shunday usullardan biri "narkograffiti" usuli bo'lib, bunda noqonuniy tashkil etilgan internet-do'kon manzili haqida ma'lumot devor va yo'laklarga chizish orqali tarqatilmoqda. Qolaversa, ularni iste'mol qilish bilan bog'liq jinoyatlarga yoshlarni, ayniqsa, voyaga yetmaganlarni jalb etish ham ko'payib boryapti.

Qonun loyihasi bilan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni telekommunikatsiya tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik, ushbu jinoyatlarni voyaga yetmaganlarni jalb qilgan holda sodir etganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirilmoqda.

Shuningdek, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda olish, saqlash, tashish yoki jo'natish uchun ma'muriy va jinoyi javobgarlik belgilanyapti.

Qonun loyihasi giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning tarqib yoki reklama qilinishi yoxud noqonuniy muomalasining barvaqt oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

OLAM NURGA TO'LSIN SEN BILAN, NAVRO'ZI!

1 Yashillikka chulg'angan farahbaxsh damlar dilimizni shavqqa to'ldiradi. Kishilar mayasazorlar ustida yonboshlagan xushkayfiyatda gurunglashmoqda. Ehtimol, ular bahorgi ekish ishlari mashvaratini qilishayotgan, balki ko'klamning barakali kelishini istab, osh tayyorlash taraddudini ko'rishayotgandir...

Kengliklarda quvlashmashoq o'ynayotgan, varrak uchirayotgan bolajonlarning quvnoq yiqiqirlari tinmaydi. Sochlariga tol novdalari va boychechakdan bargak taqqan qizlarning ham ko'nglida bir orziqish...

Bularni ko'rgan odamni cheksiz havas



chulg'aydi, beg'ubor bolalik davrlariga qaytgandek bo'ladi. Bolalar chehrasidagi sevinch va masrurlik beixtiyor kattalar yuziga ham ko'chadi.

Xonadonlarda Navro'zning shoh taomi — sumalak pishirilishi boshlanadi. Baxshi-shoirlar qo'llariga do'mbirasini olib, yuraklarga tutash ternalarni ijro etishayotir...

Ha, ona zaminimizda dillarga xushnudlik bag'ishlab, bahor sep yoymoqda.

Ko'chaga chiqsam, ikki nuroniy berilib gurunglashayotgan ekan. Ularning suhbatiga biron quloq tutdim.

— Davlatimiz rahbari mamlakatimizda juda katta o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Bularning bari xalqimizning manfaati uchun qilinayapti. Shahar va qishloqlarimiz kundan-kunga o'zgarib bormoqda. Biron shaharga bir-ikki oydan keyin borib qolguday bo'lsangiz, qiyofasini tanilyolmay qolasiz, — deydi o'soqqolardan biri. — Ilohim, Yurtboshimiz umridan baraka topsin!

Dunyoga xolis ko'z bilan birrov nazar tashlang, nimalar bo'lyapti? O'zga mamlakatlarda alg'ov-dalg'ov, notinchlik hukm surmoqda. Bizda-chi? Shukrki, bizda tinchlik-osoyshtilik. Tinchlik-totuvlikka ne yetsin! Baraka shunday yurtga yog'iladi, bayramlar shunday yurtga yarashadi-da! Ishqilib, tinchligimizga ko'z tegmasin! — ikkinchi sherigining gapini qo'llaydi...

Xalqimizda "Qari bilganni pari bilmas" degan naql bejiz aytilmagan. Tinchlik, ahilik, hamjihatlik — barcha ezguliklar onasi! Eng muhimi, qarorda ta'kidlanganidek, dunyoda murakkab vaziyat hukm surayotgan hozirgi tahlikali davrda Navro'zning buyuk insonparvarlik mohiyati, o'lmas g'oyalari, odamzodni tinchlik va do'stlikni qadrlab, o'zaro ahilik va hamjihatlikda yashashga, hayotni yanada go'zal va obod qilishga undaydigan bunyodkorlik ruhi va falsafasi Yer yuzidagi turli xalqlarning oliyanob intilishlariga ham g'oyat uyg'un va hamohangdir.

Ko'klamning yaratuvchanlik shukuhi ko'ngillarda aks sado bermoqda. Jonajon yurtingning har bir go'shasida bo'lgani singari Dehqonobodda ham bahorgi ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizda keng quloq yozgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida salmoqli ishlar amalga oshirilyapti.

Obodlik, avvalo, qalblardan boshlanadi. Xalqimizning kayfiyati baland, ertangi kunga umidlari katta. Mamlakatimizda yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar, bunyodkorlik ishlari ularni tag'in ruhlantirmoqda. Odamlar ko'klamning har bir damini g'animat bilib, mahallalarda, xonadonlarda mevali va manzarali daraxt ko'chatlarini hamda anvoyi gul nihollarini o'tqazish ishlari allaqachon boshlab yuborishgan.

Har faslning o'ziga yarasha gashti, ko'rki bor. Shaxsan o'zim bahor faslini juda-juda intilqlik bilan, bo'lakcha ichikish bilan kutaman. Fasl navbahor kelaversa, ko'nglimda qandaydir yoqimli taft va behbudlik hissiini tuyaman, mayin shabbodadan to'yib-to'yib nafas oltaman. Orzularim bir olam bo'ladi, ertangi kunga ishonchim ortgandan-ortib boraveradi.

Mana, salkam o'n yildirki, bu jozibador faslni sog'inch bilan qarshilarkanman, har chog' qalbmndagi armonlarim yuzaga qalqib chiqib, ichimda nimadir chirt etib uzilib ketganday bo'ladi. Har yili erkato'y fasl mayinlik bilan qayta kirib kelaveradi. Biroq uni mustohloq bilan, intizorlik bilan kutadigan inson — mening bahorim esa endi qaytib kelmas manzilda... Ulug' shoirimiz Abdulla Oripov aytganidek:

*Uyg'onguvchi bog'larni kezdin,
Topay dedim qirdan izingni.
Yonog'ingdan rang olgan dedim
Lolazorga burdim yuzimni,
Uchratmadim ammo o'zingni —
Sen bahorni sog'inmadingmi?*

Har bahor turmush o'rtog'im va farzandlarim bilan hovli ichiga gullar ekardik. Qaysi bir yili erta bahorda ishdan qaytsam, rafiqam Zaynab qo'lida kichkinagina ketmonchani ushlaganicha hovlida kumalanayotgan, o'g'lim Sanjar, qizlarim Sohiba, Dinora, Malohat esa onasiga ko'maklashayotgan ekan.

Ayolimdan: — Nima qilyapsiz, dehqonoy? — deb so'rayman o'zimni bilmagana solib. U menga qiya bulilib qaraydi-da: — Nima bo'lardi, gul ekyapman! — deydi. Shu topda mening bir hazillashgim keladi va: — Iya-ya, — deyman hayratlangandek bo'lib. — Tavba, gul ham gulni ekadimi-ye-yi?

Zaynab yonoqlari alvon tus olib, yerga qaraganicha kulibgina qo'ya qoladi. Uning o'sha yoqimli jilmayishlari nigohlarim oldida mangu muhrlanib qolgan...

Ba'zida xayolga cho'markanman, mijjalarimda yosh qalqiydi. O'zimni sira tutolmayman. Shu mahal televizordan el suygan san'atkor, betakror ovoz sohibasi Kommuna Ismoilovaning jozibador qo'shig'i taraladi:

*— Men parvona gul qoshida,
Yer-ko'kda sho'x nashida,
Go'zallik bor, nafislik bor,
Gullarning ol qarashida.
So'lim bahor, so'lim bahor.
Nurda kulgan yo'lim bahor...*

"Kelganing rost bo'lsin! Ilohim, qadaming qutlug' bo'lsin, so'lim bahor, fusunyor ko'klam, shukuhli Navro'zi olam!" deyman quvonchdan hayqirib. Shunday deymanu bundan ruhlanganimcha entikib ketaman. Nazarimda, yillar davomida men sog'ingan inson ham bahor bilan, Navro'z bilan birga ochilib-sochilib, gul-gul yashnaganicha hovlimizga qadam ranjida etib kirib kelganday bo'ladi. Tilu dilimda ezgu kalom aylandi: olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'zi!

Abduqayum BEKKAMOV.
Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani

QULUPNAY YETISHTIRISH - DAROMADLI SOHA

Qulupnay, asosan, bahor va kuz oylarining rezavor mevasi bo'lsa-da, bugungi kunda ushbu tansiq ne'mat issiqxonalarda yetishtirilib, yilning to'rt faslida ham dasturxonimizga ko'rk bag'ishlanmoqda. Asosiysi, issiqxonalar oilalarni yil bo'yi daromad bilan ta'minlayapti.

Intilish

Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Gaza mahallasida yashovchi Jasur Suvonov tomorqasidagi mo'jazgina issiqxonada qulupnay, bodring yetishtirib, yaxshigina daromad topayotgan tadbirkor mirishkorlardir.

— Uyimiz adirlikka tutash hududda joylashgan, — deydi J. Suvonov. — Adirlikni tekislab, issiqxona qurdim, 1,5 sotikida 1500 tup qulupnay, yana 1,8 sotikida 750 tup bodring ko'chatlarini parvarishlab kelyapman. Ayni paytda pishib yetilgan mahsulotlarni peshma-pesh bozorga yetkazib beryapmiz. Issiqxona nafaqat moddiy foyda keltiryapti, balki estetik zavq ham bag'ishlaydi. Har gal u yerga

kirganimda bahridilim yayraydi. Tashqarida sovuq, ichkarida esa hammayoq ko'm-ko'k, bahor nafasi.

Mirishkorning ta'kidlashicha, bir sotix maydonga 750 tup ko'chat qadaladi. Bir tup ko'chatdan mavsumda yerning unumdorligi, parvarishiga qarab, kamida 200 grammacha hosil olish mumkin. Demak, bir sotix yerdan bir mavsumda o'tacha 130 — 150 kilogramm hosil olinadi.

J. Suvonov issiqxonasidagi birgina 1500 tup qulupnay ko'chatlarining har biridan 200 grammdan hosil ko'tarayotgan bo'lsa, bu — bir mavsumning o'zida 300 kilogramm mahsulot, degani. Qulupnayning bozordagi narxidan kelib chiqib, endi daromadni o'zingiz hisoblab olavering...

Farhod ESONOV
("Xalq so'zi").

Jizzaxda sumalak sayli boshlandi

Dillarni shodlantirib o'lkamizga bahor keldi. Bu fasl shunisi bilan ham ahamiyatliki, unda bayramlar ko'p. Aslida ko'klam kirib kelishining o'zi bir bayram. Borliq yasharadi, tabiat go'zallashadi, qiru adirlar bolajonlarning sho'x kulgisini bilan to'ladi. Har bir xonadonga fayz kiradi.

Qadriyat

Jizzaxda bahor shukhi allaqachon boshlanib ketdi. Shahardagi Qassoblik mahallasida bo'lib o'tgan sumalak saylini ko'rib, bunga yana bir karra amin bo'ldik. Avvalo, kayvoni momolar duoga qo'l ochib, yurtga xotirjamlik tilashdi. So'ngra mahalladagi ehtiyojmand oilalar bir-bir yo'qlandi.

Ezgu niyat bilan ko'kartirilgan bug'doy urug'lari nish urgach, katta doshqozonlar osildi. Bir



yonda salomga shaylangan suluv kelinchaklar, bir tarafda o'zbek xalqining milliy o'yinlarini namoyish etgan bolalarning bellashuvlari, kim doira chertib qo'shiq kuylagan, kim tamanno bilan xiron aylangan... Xullas, Jizzaxda bahoriy tantanalar boshlandi.

Yurtimizda bayramlar bayramlarga ulanaversin!

Said DONISHEV
("Xalq so'zi").

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Har — 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



ISSN 2010-6768
4 720310 676004

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektorati va mehnat jamoasi institutning Traumatologiya va ortopediya, neyrorirurgiya kafedrasi dotsenti Murodullo Bo'riyevga otasi	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi jamoasi San'at nazariyasi va tarixi kafedrasi mudiri Shavkat Umarovga onasi
Norbek BO'RIYEVning vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.	Sanobar aya UMAROVAning vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" milliy tadqiqot universiteti jamoasi universitetning Traktorlar va avtomobillar kafedrasi dotsenti, t.f.n.	Isajon MARUPOVning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari hamda yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor qiladi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.50 Topshirildi — 00.50

1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.